

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING YOZISH KO'NIKMALARINI
SHAKLLANTIRISHDA QO'LLANADIGAM MASHQLARNING TURLARI****Ch.Tashpulatova***2-kurs magistranti :***R.S.Isroilova***Ilmiy rahbar: p.p.f.d.(PhD)*

Mashqlar ona tili darslarida asosiy didaktik material hisoblanadi. Ular boshlang'ich sinflardan boshlab tilning elementar qonun -qoidalarini o'rgatish hamda o'quvchilarda grammatik tushunchalarni shakllantirish, orfoepik, orfografik, stilistik va punktuatsion malakalarni hosil qilishning yetakchi omili sanaladi.

Har bir bo'lim va undagi mavzular yuzasidan o'quvchiga tushuncha berish, olgan tushunchalarni mustahkamlash, takrorlash va bilimlarni tizimlashtirish maqsadida ta'limiy mashqlar beriladi. Ular shu bo'lim yoki mavzu mazmuniga ko'ra belgilanadi.

Ma'lumki, tilning hamma bo'limlari bir –biri bilan o'zaro uzviy bog'langan. Shuning uchun bu bo'limlar doirasidagi ta'limiy mashqlar ham ana shu bog'lanishga asoslanishi kerak. Sintaksisga doir berilgan ta'limiy mashqlar ichida sof sintaktik ta'limiy mashqlardan tashqari sintaksis va morfologiyaga doir, sintaksis va punktuatsiyaga doir va hokazo ta'limiy mashqlar beriladi. Morfologiyaga doir berilgan ta'limiy mashqlar tarkibida sof morfologik ta'limiy mashqlar bilan bir qatorda morfologiya va leksikologiyaga doir va hokazo ta'limiy mashqlar uchraydi. Bundan tashqari ta'limiy mashqlar orasida o'quvchini bir vaqtning o'zida bir necha mavzu yoki bo'lim bo'yicha faoliyat ko'rsatishga yo'llovchi hamda predmetlararo bog'lanishga asoslangan ta'limiy mashqlar ham bo'ladi.

Ta'limiy mashqlarni bajarish uchun o'quvchi uning shartiga ko'ra faoliyat ko'rsatadi. Faoliyat ko'rsatish davomida mashqlar shartiga qo'ygan talablarni nuqtalar o'rniga kerakli harflarni qo'yib yaxlit so'z hosil qilish, berilgan so'zlardan so'z birikmalari yoki gaplar tuzish va hakazo bajariladi. Shartda ifodalanadigan talabga ko'ra o'quvchi faoliyati ma'lum maqsadga xizmat qiladi.

Masalan, "Otlarning egalik qo'shimchalari bilan qo'llanishi"ga doir ta'limiy mashqlarda egalik qo'shimchasini qo'shib yozish morfologik talab bo'lsa, egalik qo'shimchasi ta'sirida so'z o'zak -negizidagi tovush o'zgarishi va ularning yozilishini o'rganish orfografik talab hisoblanadi. Mashqlar bajarish davomida o'quvchi otlarining egalik qo'shimchasi bilan turlanishini o'rganish bilan birga ba'zi bir otlarga egalik qo'shimchasi qo'shilishi natijasida so'z tarkibida fonetik o'zgarish sodir bo'lishi va imlosini o'rganadi, otlarning aytilishi va yozilishini taqqoslash orqali morfologik-orfografik talabni bajaradi.

Yuqoridan kelib chiqib, o'quv predmeti (lingvistik) mazmuniga ko'ra ta'limiy mashqlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin.

- 1.Fonetika va grafikaga doir ta'limiy mashqlar.
- 2.Leksikaga doir ta'limiy mashqlar.
- 3.Morfemika va so'z yasalishga doir ta'limiy mashqlar.
- 4.Orfografiya va orfoepiyaga doir ta'limiy mashqlar.
- 5.Morfologiyaga doir ta'limiy mashqlar.
- 6.Sintaksis va punktuatsiyaga doir ta'limiy mashqlar.

Bundan tashqari darsliklarda o'quvchining bog'lanishli nutqini o'stirish va ijodiy qobiliyatini shakllantirish maqsadida bog'lanishli nutq o'stirish va ijodiy xarakterdagi ta'limiy mashqlar, og'zaki nutqini rivojlantirish uchun og'zaki nutq o'stirishga doir ta'limiy mashqlar, ayrim ilmiy ma'lumotlar berilgan ilmiy-publitsistik xarakterdagi ta'limiy mashqlar va bo'lim yoki mavzular yuzasidan umumiy takrorlash xarakteridagi savol-javob ta'limiy mashqlari mavjud.

“Adabiy tildagi unli va undosh fonemalar ko'pgina o'zbek shevalarida bir xil talaffuz etilmaydi. Adabiy tilning fonetikasini o'rganish natijasida o'quvchilar nutqidagi har xillik yo'qola boradi.

Agar o'quvchi nutq tovushlarini yaxshi bilsa, so'zlarning talaffuzida va to'g'ri yozishda mustahkam malaka hosil qiladi. Fonetikani puxta va to'g'ri o'zlashtirmagan o'quvchi orfografiya va morfologiyani ham yaxshi o'zlashtira olmaydi”.1

Fonetikani o'zlashtirish o'quvchi tafakkurini o'stirish bilan bog'langan. Buning uchun har bir nutq tovushi so'z tarkibida o'rgatiladi. O'rganilayotgan nutq tovushining so'z tarkibida aytilishi va yozitilishi ustida mashqlar qilinadi. Nutq o'stirishga doir ishlar fonetika mashg'ulotlariga bog'langan holda davom ettiriladi.

Fonetika o'qitishda o'quvchilarning orfografik malakalari asosan unga doir berilgan ta'limiy mashqlarni bajarish, ta'limiy mashqlar tarkibidagi so'zlarni fonetik tahlil qilish davomida o'stiriladi.

Methodist olim. O.Roziqov nutq tovushlari hamda ularni o'zaro farqlashga doir ta'limiy mashqlarni sof fonetik-orfoepik, imlo bo'yicha berilgan ta'limiy mashqlarni fonetik-orfografik mashqlar deb yuritadi.1

Tilning tovushlar mavzusini o'rgatish davomida tovushlarning yozuvdagi ifodalar-harf harflar ham o'rgatib boriladi. Chunki o'quvchining ko'p orfografik xatolari tovush bilan harfni farqlamasligidan paydo bo'ladi. Tovush va uning yozuvdagi ifodasi- harf ularga doir berilgan ta'limiy mashqlarni bajarish vositasida o'rgatiladi. Misol sifatida darslikdagi ta'limiy mashqlardan namuna keltiramiz.

Mashq. Quyidagi so'zlarda nechta tovush borligini ayting.

Keng, so'ng, tong, jang, chang: ishning, so'nggi, so'nggi ish, kuzning tonggi, tonggi shamol.

Yomg'ir, elim, yulduz, yaylov, a'lo, konki.

Ta'limiy mashqlar shartida o'quvchidan berilgan so'zlarda nechta tovush borligini aniqlash talab etiladi.

O'quvchi so'zlaridagi tovushlarni aniqlash bilan birga ularning yozuvdagi ifodasi-harflarni ham o'rganadi. Berilgan so'zlarda ikki tovush bir harf bilan aksincha, bir tovush ikki harf bilan ifodalanishni amaliy

ko'rib chiqadi. Natijada, o'quvchi shu so'zlarning talaffuzini va imlosini ham o'rganadi. Shuning uchun biz bunday ta'limiy mashqlarni fonetika va grafikaga doir ta'limiy mashqlar deb atadik. Bundan tashqari fonetikani sintaksis bilan bog'lab o'rgatishga doir fonetik-sintaktik, fonetikani leksika aspektida tahlil qilishga doir fonetik-sintaktik, fonetikani leksika aspektida tahlil qilishga doir fonetik-leksik ta'limiy mashqlar mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1YO. Gulomov. I.Rasulov. X.Rustamov. B.Mirzaaxamedov. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Qo'llanma. Toshkent 1975 y. 121 bet.

2O. Roziqov. O'zbek tilidan dars tiplari. Toshkent, 1976-77 bet